

“Startup loyihalar va startup g’oyalari” tanlovi

Toshkent shahridagi Turin politexnika universitetining 15 yilligi munosabati bilan universitetda Respublika yoshlari o’rtasida “Startup loyihalar va startup g’oyalari tanlovi” o’tkazildi. Tanlovda butun respublikadan 70 dan ortiq qatnashchilar o’z startup loyiha va g’oyalari bilan ishtirok etishdi. Hakamlar qarori bilan 3 ta eng yaxshi deb topilgan startup loyihaning har biriga 25 mln so’mlik va 3 ta eng yaxshi deb topilgan startup g’oyaning har biriga 10 mln so’mlik vaucher sertifikatlari topshirildi.







